

**ONA TILIMIZNING BUGUNGI KUNDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLARI  
YUZASIDAN METODIK TAVSIYA**

*Tursunova Nargiza Ismoiljonovna  
Farg'ona viloyati Oltiariq tumani  
4-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan  
davlat umumta'l'm maktabi*

**Annotatsiya:** Tavsiyada davlat tiliga yanada e'tiborni kuchaytirish, har bir yosh avlodni ona tiliga muhabbat ruhida tarbiyalash, o'zbek tilida aniq va ravon so'zlashga, erkin fikrlashga chorlash har birimizning muhim vazifamiz ekanligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat tili, milliy o'zligimz, ma'naviy boylik, ma'nodosh so'zlar, turkiy tillar, jargon so'zlar, estrada qo'shiqchiligi, san'at darg'alari, ma'naviy ozuqa, madaniy hordiq, urf-odatlar, qadriyatlar, iftihor, ravnaq.

*"O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli,  
bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir."*  
**Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**

Inson yarlibdiki, u o'z dilidagini namoyon etish uchun tili orqali munosabatga kirishadi. Har bir millatning o'z tili mavjud. Bizning ona tilimiz – bu o'zbek tilidir.

Ona tili — har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Tilimiz o'zining ma'nodosh so'zlarga boyligi, jozibadorligi va yoqimli talaffuzlari bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Buni biz necha necha shoimu yozuvchilarimizning ijod na'munalarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Milliy adbiyotimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov bejiz:

Ming yillarkim bulbul kalomi  
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha,  
Ammo sho'rlik to'tining holi  
O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan shaksiz  
Bulbul kuyin she'rga solaman.  
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,

Men ham to‘ti bo‘lib qolaman..., deb bejiz ta’kidlamagan.

Buyuk shoir misralarda bulbul kuyini she’rga solayotganining sababi ona tilimizning mavjudligiga ishoradir. O‘z tilini yo‘qotganlar esa, ijodkor tili bilan to‘ti bilan qismatdosh bo‘lishga mahkum qilingan.

Necha davonlar oshib, onalarimiz allasidan, yigitlarning yallasidan, bolajonlarimizning shirin tilidan chiqib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan o‘zbek tilining davlat tili deb e’lon qilinganiga ham 32 yil bo‘ldi.

Dunyo miqyosida 50 millionga yaqin insonlar so‘zlashadigan, turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biri bo‘lmish o‘zbek tiliga 1989-yil 21-oktyabrda davlat tili maqomi berildi. Shu kundan boshlab barcha bilim maskanlari har yili bu kunni o‘quvchi-yoshlarni jamlab, katta tadbir ko‘rinishida o‘tkaza boshladи. Bu qutlug‘ sanada til bayrami o‘quvchilar bilan birgalikda katta quvonch bilan nishonlanadi.

Ammo shunisi achinarlikи, ko‘plab yoshlarimiz o‘z tilidan ko‘ra o‘zga tilda gaplashishni o‘zlariga g‘urur deb biladilar. Rus, ingliz tilidagi jargon so‘zlarni qo‘shib, o‘z ona tilisini buzib gapirishlari go‘yoki zamonaviy yigit-qiz ekanligidan dalolat beradi.

Buyuk shoir Abdulla Oripovning yuqorida keltirilgan she’ridagi to‘tining holini shundayin o‘z tili bo‘la turib, unga behurmatlik ko‘rsatayotganlarga taqqoslasak ne ajab. Biz o‘z tilimizda g‘ururlanib, sof gapirishimiz darkordir.

Albatta yoshlarimizning o‘zbek tilida sof gapirmasliklariga sabab ommaviy axborot vositalarida berib borilayotgan estrada taronalarining ham ahamiyati katta. Qo‘sinq matnini o‘zi yozib, o‘zi kuy bastalab, o‘zi shunchaki havasga aytayotgan ba’zi “qo‘sinqlearning” yosh avlodning dunyo qarashiga va ongiga ta’siri shubhasiz bo‘ladi.

Qo‘sinq she’riga e’tibor qaratmay, ruscha, inglizcha so‘zlardan foydalanib qo‘sinq ijro etayotgan xonandalarimiz esa o‘zbek estradasida milliy til muamosini keltirib chiqarmoqdalar. O‘zbek estradasidagi qariyb 80% qo‘sinqchilarni shu kabi qo‘sinqchilar qatoriga qo‘sishimiz mumkin. Jumladan, necha yillardan beri o‘zbek estradasida faoliyat olib borayotgan “Afruz” guruhi “Ay-ay” deb nomlangan qo‘sing‘ida shunday kuylaydi:

Erkalasam yana

Yo‘q dema, dema.

Qayerdan shuncha chiroy,

Baxliman толька с тобой.

Bemorman о‘у- yo‘у,

Бот я, вот такой.

Bemor bo‘lgan honanda o‘zining qandayligini, ahvoli yomonligini hursand holatda qo‘sinqda ruscha jumlalarni qo‘shtan holda ijro etmoqda.

Yoki bo‘lmasam, Via Marokand guruhi ijrosidagi “Sevgi degani shu” nomli qo‘sish matniga nazar solsak:

Bo‘ldi qiling, jim!  
Jimmi? Bo‘ldi jim.  
Gapirmadim agar sizga o‘tmasa so‘zim.  
Bo‘ldi qiling, jim!  
Ok, ana jim.  
O‘tiribman suhbatdoshim faqat men o‘zim.  
Qani mani наушник им?  
Sizni eshitgim kelmayapti!  
Ru tu tut u, sevgi degani shu.  
Rut u tut u, Я тебя люблю.  
Ho‘p девушка ho‘p, ho‘p...

Shu va shu kabi qo‘sishqlarimizning son sanog‘i yo‘q. Ularni berilib tinglayotgan yoshlar ham talaygina. Hech qanday milliylikni, o‘zbekcha rujni o‘zida mujassamlashtirmagan qo‘sishqlarni tinglab borayotgan yosh avlod san’atning shu turi orqali kelajakda qanday inson bo‘lishini rejalashtirib olyaptimi, yoki yetarli hulosalarga ega bo‘lyaptimi? Xullas, anig‘i noma’lum. Biroq o‘zbek yoshlarining og‘zidan tushmay, hirgoyi qilayotgan qo‘sishqlari orqali tarbiyasi buzilayotgani barchaga birdek ma’lumdir. Yosh avlodning tarbiyasida, davlat tilini ularga singdirishda san’atning o‘rni beqiyosligi hech kimga sir emas. Avvalgi san’atimiz darg‘alari har bir so‘z ustida tinmay izlanganlar, ma’no-mazmunini tushunib yetib, so‘ng qo‘sishqni ijro etganlar. Ular yaratgan ijod na’munalari esa, insonga ma’naviy ozuqa, madaniy hordiq beribgina qolmay, tarbiya vazifasini ham o‘tay olagan.

O‘z ona tilimizni farzandlarimiz ruhiga, ongiga singdirish bizning chin insoniy vazifamiz emasmi? Zero shu til orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodga milliy urfatlarimizni, qadriyatlarimizni, o‘zbekona mehr-oqibat, ota-onaga cheksiz hurmatni, o‘zligimizni anglashni singdirishimiz tabiiydir.

Afsuski, aksariyat ota-onalarimiz o‘zлари o‘zbek bo‘la turib, farzandlarini ta’lim rus tilida olib boriladigan sinflarga beradilar. To‘g‘ri ular ham dilbandim til bilsin, “Til bilgan - el biladi”, dunyo ko‘rsin, deb niyat qiladilar. Ammo, ming afsuslarkim, aksariyat bolalar rus sinfida o‘qib na o‘zbek tilida, na rus tilida to‘liq gapirolmaydigan bo‘lib ta’lim olmoqdalar. Bunday holat kelajakka o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Avval har bir o‘zbek o‘z tilida ravon so‘zlasin, mag‘rurlanib gapirsin, keyin esa boshqa tilga yuzlansin. Na o‘zbek tilida, na boshqa tilda to‘liq gapirolmasa, bunday “arosat”ning qanday foydasi bor. Bu haqda shoira Halima Xudoyerberdiyeva o‘z she’rida ham ta’kidlab o‘tgan:

Senda bodom isi bor,  
Senda bobom isi bor,

Bolam na rus, na o‘zbek,  
Arosat belgisi bor.

Besh yuz yillar avvalgi  
Xatni men anglayman, bas,  
Men bugun aytganimni  
Bolam ba’zan tushunmas.

Ko‘kragimda dod qotgan,  
Yaqinlashar katta havf,  
O‘z tilini yo‘qotgan  
Xalq bo‘lmasmi yerdan daf.

Oldga, safarbarlikka  
Qanday yaraydi bolam,  
Ortidagi jarlikka  
Qanday qaraydi bolam.

Darhaqiqat, o‘z tilida so‘zlamagan xalqning o‘zligi bo‘lmaydi, milliyligi bo‘lmaydi. Biz o‘z tilimizda g‘urur, iftihor bilan ma’noli, sof so‘zlaylikki, farzandlarimizga o‘zimiz bilmagan holda o‘rnak bo‘laylik. Ahir aytishadiku, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb. Shundagina kelajak uchun mos avlod qoldira olamiz. Milliy tilda ravon so‘zlash shunchaki boshqalardan ajralib turish uchun emas, o‘zligimiz uchun, yillar, asrlar davomida qadrlanib kelayotgan urf-odatlarimiz uchun, milliy madaniyatimiz uchun, Vatanimiz ravnaqi uchun juda muhimdir. Buning uchun albatta ta’lim hamda san’at turlariga katta e’tibor qratmog‘imiz darkordir. Yosh avlodning ongiga milliy tilni kino hamda estrada san’ati turlari orqali singdirish katta ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida ham o‘zbek tilining naqadar boy hamda buyuk til ekanligini o‘quvchilarining ongiga singdirib, davlat tilini qadrlash va hurmat qilishga o‘rgatish darkor. Shundagina tilimizning qadri baland bo‘lib, yurtimiz ravnaqi yanada oshadi.

Til – millatning o‘tmishi, buguni va ertasini bog‘lab turadigan mustahkam ko‘prik. U darz ketsa, istalgan millat o‘zi, o‘zligi, ma’naviy qiyofasini butkul yo‘qotadi. Til – madaniyat, ma’rifat, axloq, tarbiya va shaxs kamolotining bosh mezoni. Bu mezon shikastlansa, millat tanazzulga, uning go‘zal va abadiy qadriyatları yo‘qlikka yuz tutmog‘i muqarrardir. Unutmaylikki, inson ruhiy kechinmalarining rangin tasviri, o‘y-fikrlarining jo‘shqin tabiatи, fitratu fikratidagi erk va hurriyat mushohadasining nurli tasviri ona tilining jozibasi, shukuhi, so‘nmas va betakror qudrati orqali namoyon bo‘ladi. Ona tilimizni e’zozlaylik, qadriga yetaylik!

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”-T.: O‘zbekiston 2020.
2. A.Oripov “Saylanma”- T.: Tafakkur qanoti 2019.
3. H.Hudoyberdiyeva “So‘z chamani” –T.: Akademnashr 2020.
4. <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/6>